



EKOLOGIYA HUQUQI

Odilova Hilola Avazjon qizi

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnalogiyalar instituti
Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolada yurtimizda vujudga kelayotgan ekologik vaziyat va ularni bartaraf etish uchun keng ko'lamda olib borilayotgan ishlar, "Qo'shtepa" kanalining qurilishi bilan bog'liq bo'lgan muammolar qayd etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, Orol dengizi, qo'riqxonalar, "Qo'shtepa" kanali, atrof muhitni muhofaza qilish, gidralogiya.

Kirish. Inson dunyoga kelibdiki, ko'z ochib tabiatni ko'radi, uning so'lim bag'rida o'sadi, ulg'ayadi va hayot kechiradi. Shuning uchun ham tabiatni insonning onasi deymiz. Ekologiya - olamdagi har bir tirik jon, trik organizimlar hayotning tashqi muhiti bilan bog'liqligi qadimdan ma'lum albatta. Qadimdan ko'plab faylasuflar o'z asarlarida o'simliklar, hayvonlar va boshqa tirik jonzotlar yashashi, hayot tarzi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tganlar. Insonlar tabiat bilan uyg'un holda yashagani tufayli, tabiatni o'rganish ularni tabiiy ehtiyojiga aylangan. Bu ehtiyoj orqali insonlar atrof muhit, o'simliklar va hayvonot olami, tabiatda sodir bo'ladigan hodisa va jarayonlarni sirli tomonlarini o'rgana boshlagan.

"Ekologiya" terminini fanga birinchi bo'lib Nemis olimi Ernest Gekkel 1866-yilda olib kiradi. E.Gekkel bu fan haqida shunday fikirlarni yuritadi: "Ekologiya ayrim individlarning rivojlanishi, ko'paytishi, yashashi, populatsiyasi va jamolarning tarkibi hamda o'zgarishlarni yashash muhitiga bog'liq holda o'rganadi". Ekologiya atamsi yunoncha "okios" – turar joy, yashash muhiti, uy, - "logos" – ta'limot, degan ma'noni anglatadi. Ekologiya huquqi – esa tabiat bilan jamiyat o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tomonidan tartibga soluvchi vosita hisoblanadi.

Ekologiya huquqi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining mustaqil huquq tizimida o'z o'rni va salohiyatiga ega bo'lgan alohida yo'nalish hamda xususiyatlarga ega bo'lgan huquq sohasidir. Ekologiya huquqining asosiy manbasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiyamizda belgilangan qoidalar orqali jismoniy va yuridik shaxslar ekologik huquq, burchlari va erkinliklarini ifoda etadilar. Shuni alohida ta'kidlash joizki O'zbekiston



Respublikasi Konstitutsiyasida tabiat-jamiyat tizimidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qoida-talablar ham belgilangan bo‘lib, ekologiya huquq manbalarining poydevorini tashkil etadi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasining 49-moddasida:

“Har kim qulay atrof-mhitiga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborot ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarni ta’minlash va atrof - muhitiga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyhalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasiga o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiiga muvofiq, atrof-muhitini yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi”, - deb ko‘rsatilgan.

Demak, tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga har doim rioya etish va ekologik halokatlarning oldini olish mustaqil davlatimizning iqtisodiy, huquqiy masalasi bo‘libgina qolmay, balki ekologik siyosatining asosiga aylanishi lozim. Chunki ushbu muammoning ortida butun mustaqil davlatimiz, millatning taqdiri yotibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida-talablari va tamoyillari asosida ekologik huquqlarni ta’inlash, atrof-muhtiga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘yilmaslik va boshqa bir qator masalalar yuzasidan qonunlar qabul qilingan. Asosiy qonunimizda davlat ekologiya siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilansa, ushbu konstitutsion qoidalariiga mos ravishda qabul qilinadigan qonunlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resuslardan oqilona foydalanishning talablari, mexanizmini mustahkamlanadi. Respublikamiz mustaqilika erishganidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining quydagi qonunlari qabul qilindi: “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”, “O‘simplik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni va boshqalar. Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekt va subyektlari, tabiiy resuslarning



huquqiy holati, ushbu sohada yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, tabiiy resuslardan foydalanish va ularni muhofaza etish tartibi, muddati va talablari, ekologik qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik chora-tadbirlari kabi ekologik-huquqiy qoida talablari belgilangandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 iyuldagagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o‘tgan davirdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhlarining vazifalari belgilandi. Avvalo, sohaga oid yangi tahrirdagi qonun loyhalarini yaratish, amalda bo‘lganlarini yanada takomillashtirish, aholining ekalogik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan bir qancha ishlarni yo‘lga qo‘yish, ekologik nazoratining jamoatchi inspektorlari tizimini rivojlantirish va bugungi kunning global muammosi bo‘lgan Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlari qabul qilinib, hayotga izchil ravishda tatbiq etilmoqda.

Bugungi kunda mustqail O‘zbekiston yirik sanoat va agrar mintqa bo‘lib, kelajakda energetika, mashinasozlik, kimyo, oziq – ovat sanoati, transport majmuini rivojlantirishni ko‘zda tutgan. Bunday ishlab chiqaruvchi sanoat bazalari albatta, Respublika ekalogiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Respublikamiz hududida vujudga kelayotgan ekologik muammolar quydagilar:

1. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalashning yetarli emasligi
2. “Qo‘shtepa” kanaling qurilishi va uning Amudaryo suvidan foydalanish tartibiga faol ta’siri.
3. Havoning ifloslanishi.
4. O‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar tarmog‘ini kengaytirish va boshqalar.

Bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan bir bu, “Qo‘shtapa” kanalining qurilishidir. “Tolibonlar” hukumati 2022 yil mart oyida Amudaryodan suv oladigan “Qo‘shtepa” kanali qurilishini e’lon qilgan edi, bugungi kunga kelib esa uning birinchi uchastka qismini qurilishi yakunlandi. Kanal qurilishi O‘zbekistonning qator viloyatlarida suv tanqisligini kuchaytirishi va qishloq xo‘jaligi sohalariga o‘zining ta’sirini ko‘rsartmasdan qolmaydi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Afg‘onistonning amaldagi hukumati tomonidan qurilayotgan “Qo‘shtepa” kanali haqida quydagicha fikir bildirdi.

“Mohiyat-e’tiboriga ko‘ra, mintaqmizda suvdan foydalanish jarayonida bizning mamlakatimiz bilan hech qanday majburiyat asosida bog‘lanmagan yangi ishtirokchi paydo bo‘ldi. Afg‘on tomoni kanalni qurish bo‘yicha faol ish olib borayotganini yaxshi bilasiz. Uning ishga tushirilishi Markziy Osiyodagi suvdan foydalanish tartibiga ta’sir bilan bog‘iq barcha jihatlarni mamlakatimizdagi tadqiqot institutlarini jalg etgan holda o‘rganish bo‘yicha Qo‘shma ishchi guruhini shakllantirish zarur, deb hisoblaymiz. Afg‘oniston vakillarini suv resuslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqatga jalg etish masalasini ko‘rib chiqishni taklif etamiz”. Ma’lumotlarga ko‘ra ushbu kanal daryoning uchdan bir qismigacha bo‘lgan suvni tortib ketishi mumkin. Bu esa O‘zbekiston va Turkmaniston katta suv muammosiga duch kelishi, Markziy Osiyoda yaqin orada kutilayotgan katta suv tanqisligining asosi bo‘lishi hamda mintaqada gidrologiyasi va atrof muhit landshaftlariga katta saliby ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agarda masalaga xalqaro huquqiy nuqtayi nazardan yondashilsa, shu narsa ma’lum bo‘ladiki, Afg‘oniston mintaqadagi transchegaraviy suvlardan foydalanish bo‘yicha hech qanday mintaqaviy yoki xalqaro shartnomalarni imzolamagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda aholining atrof muhit bilan bog‘liq qarashlarini o‘zgartirish, ekologik huquqiy madaniyatini oshirish lozim. Uni amalga oshirish uchun usul, uslub va choralarini ishlab chiqish ekologiya huquqi fanining vazifalari qatoriga kiradi. Natijalar umumlashtirilib maxsus loyihamar, dasturlar, ularni amalga oshirish uchun huquqiy asoslar, qonunchilik hujjatlari ishlab chiqiladi. So’ngra aholi o’rtasida huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida targ’ibot, tashviqot va tushuntirish ishlari olib boriladi. Davlat ekologik nazorati va jamoatchilik nazorati orqali ularning ijrosi monitoring qilib boriladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Xolmo‘minov.J. Ekologiya va qonun. – Toshkent: Adolat – 2000
3. Uslubiy qo‘llanma. Ekologik havfsizlik va inson huquqlari himoyasi.- Toshkent- 2002
4. <https://platina.uz/>
5. <https://kun.uz//>
6. <https://xs.uz//>